

## TOJIKISTONDA O‘ZBEK BOLALAR SHE‘RIYATI TARAQQIYOTI

(Shoir Sultonmurod Hojiboyev ijodi misolida)

**Sattorov O‘ktamali Abbosovich,**  
*akademik Bobojon G‘afurov nomidagi  
DTM X‘jand DU dotsenti, pedagogika  
fanlari nomzodi (Tojikiston)  
Tel: (+992) 92 647 57 57  
El.pochta: uktamalis64@mail.ru*

***Annotatsiya:** Maqolada Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi a‘zosi, Tojikiston madaniyati va matbuoti a‘lochisi, Zufarxon Javhariy nomli adabiy mukofot hamda “Nishoni suxan” sohibi Sultonmurod Hojiboyevning Tojikistonda y‘zbek bolalar she‘riyati takomili hamda taraqqiyotidagi y‘rniga e‘tibor qaratildi. Shuningdek, shoirning bolalarga bag‘ishlangan bir turkum she‘rlari tahlil qilinib, ularda shoir badiiy mahorat sirlari ham k‘rsatildi.*

***Tayanch s‘yz va iboralar:** alifbe, an‘ana, ta‘sir, bolalar shoiri, janr, y‘ziga xoslik, urush mavzusi, mahorat, she‘riy san‘atlar, lirik qahraman, lirik personaj, badiiy tahlil. Bayoz.*

Tojikistonda o‘zbek bolalar she‘riyati XX asrning 60-yillaridan boshlab shakllana boshladi. Uning taraqqiyotida Sultonmurod Hojiboyev va Shodi Sattorning xizmatini alohida e‘tirof etish lozim. Shunisi quvonchliki, keyinchalik ularning safiga Egamnazar Sohibnazarov, Hakim Bozor, Mirzo Hakim, Erali Jiyanboyev, Ermat Bobojon kabi iste‘dodlar qo‘shildi.

Bu shoirlar orasida Xalqaro Jurnalistlar konfederatsiyasi hamda Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi a‘zosi, Tojikiston madaniyati va matbuoti a‘lochisi, Zufarxon Javhariy nomli adabiy mukofot va “Nishoni suxan” nishoni sohibi, “Men oyga chiqib tushdim” (1985), “Quvnoq Alifbe” (1990), “Dunyoga sevmoqlik uchun kelganman” (2002), “Mening bobom qayerda?” (2002), “Dunyo gullari” (2004), “Mehr qo‘shig‘i, muhabbat qo‘shig‘i...” (2014) kabi qator kitoblar muallifi Sultonmurod aka Hojiboyevning o‘rni alohida. Uning she‘rlarida bolajonlarning o‘y-fikrlari, ichki kechinmalari, intilishi hamda orzu-umidlari samimiyat bilan qalamga olingan.

Sultonmurod Hojiboyev 1943-yilning 10-dekabrida Tojikiston Respublikasi Sug‘d viloyati Istaravshan (Y‘ratepa)tumanining Bolg‘ali qishlog‘ida dunyoga kelgan. Taqdirning taqozosi bilan padari buzrukvorining diydorini ko‘rish Sultonmurod akaga nasib etmagan. Otasi Hojiboy ota aziz dilbandi Sultonmurod tug‘ilmasdan ko‘plar qatori harbiy xizmatga chaqiriladi. Undan turmush o‘rtog‘iga kelgan yagona maktubda u janubiy Qozog‘istonning Turkiston shahrida harbiy tayyorgarlikdan o‘tganligi, endi ularni jang maydoniga olib ketishayotgani haqida yozilgan edi. Maktub so‘ngida agar Alloh ularga o‘g‘il farzand ato etsa, unga Sultonmurod deb nom qo‘yishlarini tayinlaydi. Shundan so‘ng Hojiboy otadan boshqa xatu xabar bo‘lmadi. 24 yoshida yolg‘iz farzand bilan beva qolgan onaizor mehribon yoridan yodgorlik bo‘lgan Sultonmurodni oq yuvib, oq taradi. Umrining

so‘nggi kuniga qadar turmush o‘rtog‘ini intiqlik va intizorlik bilan kutdi. Ko‘zining oqu qorasi bo‘lgan yakkayu yagona dilbandi Sultonmurodga bor umrini baxshida etdi. Vafo va sadoqat timsoliga aylangan Ona bo‘lajak shoirning murg‘ak qalbida mehru muhabbat, odamiylik, saodat va samimiyat urug‘larini qadab uni kamolga yetishida buyuk MURABBIY bo‘lib qoldi. Davrimizning hassos shoiri A. Oripovning “Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda, Bu qadar muhtaram bo‘lmasdi Ayol!” deya bitilgan misralari xuddi shunday sabr va sadoqat timsollari sha’niga aytilgan edi...

Bo‘lajak shoirning bolaligi ona qishlog‘i Bolg‘alida o‘tdi. Endi aqlini taniganda urush tugagan bo‘lsa-da, uning jarohatlari hali odamlar qalbidan ketmagan, turmushning zil zambil yuki ularning qaddini bukkani bir davr edi. Bu mashaqqatli kunlarda kattalar bilan bir qatorda bolalar ham zahmat tortishar edi. Mushfiq onaning yakkayu yagona suyangan tog‘i bo‘lgan Sultonmurodning ham mehnatda suyagi qotdi. U yoshligidan tirishqoq, harakatchan, qiziquvchan bola bo‘lib voyaga yetdi. Shuning uchun uni 6 yoshidan Bolg‘alidagi boshlang‘ich komplekt maktabgaboridi, 5-7 sinflarni qo‘shni Objuvoz qishlog‘i asosiy maktabida, so‘ng Yratepa shahridagi Stalin (hozirgi Ayniy) nomli maskanda saboqni davom ettirdi.

Avval Leninobod (hozirgi Xujand) pedagogika bilim yurtida, s‘yng Leninobod Davlat pedagogika instituti tarix filologiya fakultetining o‘zbek tili va adabiyoti (sirtqi) bo‘limiga, 1965-yilda esa Lenin nomli Toshkent Davlat universitetining jurnalistika (kunduzgi) bo‘limiga o‘qishga kirishga muyassar bo‘ldi.

1966-yildagi Toshkent zilzilasi tufayli talabalardan istovchilarni qurilish ishlariga jalb etishdi. Yozgi ta‘til davomida u ham qurilish ishlarida qatnashdi. Sultonmurod oilaviy sharoiti tufayli jurnalistika fakultetining kunduzgi bo‘limda tahsilni davom ettira olmadi. Chunki oilaga moddiy jihatdan yordamlashishi zarur edi. Natijada tahsilni kechki bo‘limda davom ettirishga to‘g‘ri keldi. Kechki bo‘limda o‘qish bilan birga ma‘lum muddat qurilishda, 1967-yilning boshidan to 1969-yilgacha Toshkentning 39-o‘rta maktabda boshlang‘ich sinflarda dars berdi. 1969-yilda onasining betoblighi tufayli qishlog‘iga qaytadi.

1969-yildan 1983-yilgacha Objuvoz qishlog‘idagi 50-maktabda o‘zbek tili va adabiyot fanlaridan dars berdi. 1983-yildan bugungi kunga qadar (2024) Istaravshan shahar hukumat organi “Payomi Istaravshan”ning o‘zbek bo‘limini boshqarib kelmoqda.

S. Hojiboyevning birinchi she‘ri “Ona Vatan” 1963-yilning 9-mayida “Rohi komunizm” ro‘znomasida bosilib chiqdi. Shundan so‘ng uning bir qator xabar, she‘r, maqola va hikoyalari “Rohi kommunizm” (“Payomi Istaravshan”), “Haqiqati Leninobod” (“Sug‘d haqiqati”), “Sovet Tojikistoni” (“Xalq ovozi”), “Lenin uchquni”, “Toshkent oqshomi” gazetalarida, “G‘uncha”, “Gulxan”, “Guliston”,

“Mushtum”, “Sharq yulduzi”, “Sug‘d yog‘dusi” kabi jurnallarida, “Yoshlik” bayozi, “Boychechak”, “Hovli to‘la bolalar”, “Qirqoyog‘ va qirq paypoq” to‘plamlarida ketma-ket chop etilgan.

Shoirning bolalarga bag‘ishlangan birinchi she‘rlar to‘plami – “Men oyga chiqib tushdim” 1985-yilda Dushanbedagi “Maorif” nashriyotida 5000 nusxada nashr etildi. Unda shoirning 22 ta eng sara she‘rlari jamlangan [Hojiboyev S. 3].

Shu tıplamdan joy olgan “Chumchuqcha nega xafa?” she‘rida do‘stlik g‘oyasi tarannum etilgan. Lirik qahramon shoxchada “G‘amgin xayolga botib” o‘tirgan chumchuqchadan uning xafaligi boisini so‘rasa, u shunday javobi beradi:

*Dedi: – Hech kim urmadi,*

*Suv ham serob, qornim to‘q.*

*To‘g‘ri, churq-churq... xafaman,*

*Chunki menda o‘rtoq yo‘q... [ Hojiboyev S. 3:14 ].*

She‘rdagi xulosa shuki, kishining o‘rtog‘i, do‘sti bo‘lsa, u hech qachon xafa bo‘lib qolmaydi.

“Marsdamiz” she‘ridagi qahramon xayolan Marsga sayohat qiladi. U yerning ajoyib manzarasi o‘quvchini hayratga soladi: “Vuy, ajoyib manzara! To‘rt tomon tog‘u dara”. Shoir undagi siru sinoatlarni “Sirli sandiq”qa mengzaydi. Bu sandiqning kalitini esa bilim orqaligina qo‘lga kiritish mumkinligini ta‘kidlaydi. Bu esa o‘quvchini yanada chuqurroq bilim olishga undaydi. To‘plamdagi yana bir she‘r – “Men oyga chiqib tushdim” deb nomlangan. She‘r sarlavhasiyoq o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi, uni zo‘r qiziqish bilan o‘qishga undaydi. Oyning ajoyib manzarasi – “Bir tomoni katta tog‘, bir tomoni katta bog‘ ekan”ligi bilan o‘quvchini zavqlantiradi. Lirik qahramon hatto “Soyning zilol suvida rosa cho‘milib oladi”. She‘rdagi tasvir uslubining o‘ziga xosligi shundaki, bu voqealar qahramonning tushida sodir bo‘ladi: “Baliq ham tutar edim, Lekin uyg‘onib qoldim” [Hojiboyev S. 3:17].

Darvoqe, mazkur she‘rning yaratilishi haqida. She‘r 1967-yilda Toshkentda yozilgan edi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, o‘sha yillari shoir maktabda ishlash bilan birga jurnalsitika fakultetining kechki bo‘limida ham tahsil olardi. Boshlang‘ich sinflarda dars berayotganligi sababli uni “Lenin uchquni” ro‘znomasiga amaliyot o‘tash uchun yuborishadi. Redaksiya xodimi unga bolalar haqida she‘r yozishni vazifa topshiradi. Ertasigayoq mazkur she‘r tayyor bo‘ldi. Shoir Safar Barnoyevning tavsiyasi bilan u “Lenin uchquni” ro‘znomasida chop etildi. Bu ilk she‘r katta ijod alangasining uchquni kabi o‘z sohibi iste‘dodidan darak berdi.

1989-yili “Yulduzcha” nashriyoti kichik maktab o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan “Quvnoq alifbe” tanlovini e‘lon qildi. Unda taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyevning taklif va tashabbusi bilan Sultonmurod aka ham o‘z

sheʼrlari bilan ishtirok etdi. Shunisi quvonchliki, tanlovga taqdim etilgan 40dan ortiq kitoblar orasida S.Hojiboyevning “Quvnoq alifbe”si munosib deb topildi va 1990-yili “Yulduzcha” nashriyotida 75000 nusxada chop etildi [Hojiboyev S. 6].

“Quvnoq alifbe” toʻplami bolalarni, xususan, birinchi sinf oʻquvchilarini harflarning sehri shahriga sayr ettiradi. Unda har bir harfga doir, shu harf bilan boshlanuvchi soʻzlar vositasida ajib tovushlar uygʻunligida hosil qilingan ixcham, goʻzal va quvnoq sheʼrlar jamlangan. Bu toʻrt misrali sheʼrlarning har bir misrasi Alifbedagi maʼlum harf bilan boshlanadi. Faqat misra boshidagina emas, balki uning oʻrtasi va oxirida ham bu tovush uygʻunligi izchil saqlanadi.

*Bogʻimizning bir chetida*

*Bobom ekkan bodom bor.*

*Bu bodomni koʻrsak, goʻyo –*

*Bogʻimizda bobom bor* [Hojiboyev S. 6: 5].

Sheʼrdagi oʻn toʻrtta soʻzdan oʻntasi “B” harfi bilan boshlanadi. Bu usul adabiyotshunoslikda tavzeh deb ataluvchi sanʼat koʻrsatgichi hisoblanadi. Shoir tovushlar uygʻunligida sheʼriy evfonik jarang, ohangdorlik hosil qiladi. Bu ohangdorlik natijasida, birinchidan, bolaning eʼtibori oʻrganilayotgan tovush va harfga qaratilsa, ikkinchidan, sheʼr juda tez yodlanadi, uchinchidan esa kishiga estetik zavqbagʻishlaydi.

Alohida qayd etish zarurki, “Quvnoq alifbe”ga kiritilgan sheʼrlar faqat jarangdorligi, shakliy goʻzalligi bilangina cheklanib qolmay, balki mazmun-mundarijasining mukammalligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Yuqoridagi “B” harfi haqidagi sheʼrda yosh bolaning bobosiga boʻlgan mehri, sogʻinchi samimiyat bilan misralarga muhrlangan.

“A” harfi haqidagi sheʼrda doʻstlik, inoqlik hamda oʻzaro yaqinlik ulugʻlanadi. Alifbedagi 35 harf juda ahilliklari, inoqliklarini izhor etishyapti. Ular ahillikda xuddi aka-ukalardek qadrdon. Harflar noahil, alohida-alohida boʻlganida maʼno ifodalay olmas edilar. Ular bahamjihat boʻlishganidagina soʻz hosil qilib, mazmun ifodalay olishardi. Sheʼrda shoir bolalarni ham bir-birlari bilan doimo doʻst, inoq boʻlishga chaqiradiki, bu har bir davr uchun muhim ahamiyatga ega.

*Alifbeda oʻttiz besh harf –*

*Ahil aka-ukamiz.*

*Ajratolmas bizni hech kim,*

*Asil aka-ukamiz* [Hojiboyev S. 6: 5].

Ozodalik inson uchun juda zarur fazilat. Ayniqsa, boshlangʻich sinf oʻquvchisi ham har kuni yuz-qoʻlini sovunlab yuvishni, tishini esa tish choʻtkasida yaxshilab tozalashni odat qilmogʻi lozim. Vaqtida bunga amal qilmagan bolaning tish ogʻrigʻidan aziyat chekishi sheʼrda juda taʼsirli qilib ifodalangan:

*Voy-voy, deyman, voy, tishim,*

*“Voy-voy” lamoqdir ishim.*

*Vaqtida tish yuvmavdim,*

*Voy, qo‘ymas hech og‘rishin... [Hojiboyev S. 6: 5].*

Shoir she‘r qahramoni misolida bolalarni tozalikka, ozodalikka e‘tibor bermasliklari juda xunuk oqibatlariga olib kelishini yorqin lavhada bayon etadi. O‘ylaymizki, bu she‘rni o‘qigan o‘quvchi avvalo, bolaning ahvoriga achinadi, ikkinchidan doimo tishni yuvib yurishi, uni ehtiyotlashi zarurligini anglab yetadi.

“Quvnoq alifbe”da bolalarni yaxshi o‘qishga, bilim asoslarini chuqurroq o‘zlashtirishga da‘vat ruhidagi she‘rlar talaygina. Shulardan yana biri “Z” harfi haqidagi t‘yrtlikdir. Ma‘lumki, kichik maktab o‘quvchilari o‘z tengdoshlari bilan musobaqalashishni, o‘zlarining kuchli, chaqqon, chopqir ekanliklarini namoyish etishni xush ko‘radi. Shoir she‘rda polvon bo‘lib hammani yengib, ammo darsda esa “ikki”, “uch” olgan zo‘r emas, balki bilimli, zukko, topqir, fanlarni “a‘lo”ga o‘zlashtiruvchi bola zo‘rdir degan muhim g‘oyani ilgari surgan:

*Zo‘r emas polvon bo‘lib,*

*Zo‘rg‘a “ikki”, “uch” olgan.*

*Zo‘rdir o‘qib “a‘lo”ga,*

*Zuhra, Marsga ucholgan [Hojiboyev S. 6: 9].*

To‘plamidagi aksar she‘rlarida yalqovlik, dangasalik, ishyoqmaslik tanqid qilinadi. “I” harfi haqidagi t‘yrtlikqahramoni haddan ziyod yalqov bola. Unga ish tayinlansa, darrov o‘zini kasal qilib ko‘rsatadi. Hozirgina tuppa-tuzik yurgan bola ish so‘zini eshitgan zahotiyoyq inqallab “uh, boshim”lab qoladi. Ammo uning ishtahasi chakki emas:

*Ish desang, kasal bo‘lar,*

*Inqillab “uh, boshim”, der.*

*Ishtaha desang karnay,*

*Ikkovlonning oshin yer [Hojiboyev S. 6: 9].*

“Ya” harfi haqidagi she‘r qahramoni bu ishyoqmasni dog‘da qoldiradi. Yuqoridagi tasvirda ishdan o‘zini olib qochib, ish desa o‘zini kasalga solar edi. Lekin ovqatlanishdan bosh tortmasdi. Bu qahramon esa hatto uyquda ham tush ko‘rishni yoqtirmaydi, chunki charchab qoladi-da:

*Yaxshi tushlar ko‘r, desam,*

*Yalqovjon xush olmayin:*

*Yaxshisi, der, ko‘rmay tush,*

*Yana charchab qolmayin [Hojiboyev S. 6: 22].*

“Quvnoq alifbe” to‘plamiga kirgan she‘rlari o‘ynoqi, quvnoq ohangi, yengil yumorga qorishiqligi, eng muhimi o‘ziga xos ravon uslubda yozilganligi bilan

o‘quvchilar qalbiga yetib boradi. Ularda maqtanchoqlik qoralanib, tabiatni sevishga da’vat etiladi, narsalarga xos xususiyatlar yorqin lavhalarda chizib beriladi.

Shoirning “Dunyo gullari” to‘plami 2004-yilda Dushanbe shahridagi “Adib” nashriyotida 1000 nasxada chop etildi [Hojiboyev S. 2]. To‘plamdan shoirning bolalarga atalgan 59 ta sara she’rlari joy olgan.

S. Hojiboyevning “Dunyo gullari” to‘plamiga kirgan she’rlar mavzu jihatdan xilma-xildir. Ular ota-ona, vatan, do‘stlik, bolalik, axloq va odob, mehnatsevarlik, odamiylik, non, urush kabi mavzular yoritilganligi bilan badiiy qimmatga ega.

Shoir ijodida yetakchi tamoyillardan biri tuyg‘uning g‘oyat samimiyligidir. Samimiylilik bor joyda ortiqcha rasmiyatchilik, hayqiriq chaqiriqlar, zo‘rma zo‘rakilikka o‘rin yo‘q. S.Hojiboyev ijodi hayotiy va samimiyligining bosh sababi esa ustoz munaqqid Yu.Shonazarov o‘rinli ta’kidlaganidek, uning “...shaxsiy hayoti, aniqrog‘i, bolalik qismati bilan bog‘liq” [Shonazarov Yu.1:21]. She’rlardagi urush va tinchlik, yaqin kishilari mavzusi bevosita ana o‘sha shoir shaxsiy hayotidan olingan lavhalar deyish mumkin.

Urush va tinchlik – shoir ijodidagi bosh va asosiy mavzulardan biri. Shoir urush tufayli ota diydorini ko‘rolmadi, urush jabrini tortganlar safida bolaligi o‘tdi. “Dunyo gullari” to‘plamidagi “Mening bobom qayerda?” nomli she’rda lirikqahramon o‘g‘lining savoliga bag‘ri o‘rtanib javob izlaydi. Urush tufayli oddiy xalq ne-ne azobu uqubatlarga giriftor bo‘ldi: ochlik, yupunlik, g‘amu alam, eng og‘iri navqiron yigitlar jangdan qaytmadi. Ota-onalar farzandlari firoqida, kelinlar yorlari hajrida kuyib qolaverishdi, yetim qolgan farzandlar ota diydoridan mosuvo bo‘lishdi.

- *Qaytmaganlar ro‘yxatida*

*Mening otam bor edi.*

*Diydorini bir ko‘rishga*

*Ko‘zlarim zor-zor edi.*

*Kutar edim uni intiq,*

*Ertayu kech yo‘l qarab.*

*Onajonim kutar edi*

*Ko‘zlari-yey mo‘ltirab* [Hojiboyev S. 2:24].

“Nima uchun urush bo‘ldi?”, “Odamlar-a qanday qilib bir-birini o‘ldirar?” savollariga javob izlaydi shoir va haqli tarzda “Tor kelarmu ona - Yer” deb e’tiroz bildiradi. Yuqoridagi savol to hanzu muhim ekanini she’r yakunida: “Bu savolga javob izlar Bugun butun dunyomiz”, - deya xulosalaydi.

Shoirning onasi Qurbonoy Aslon qizi xotirasiga bag‘ishlangan va 2014-yilda nashr etilgan “Mehr qo‘shig‘i, muhabbat qo‘shig‘i...” deb nomlangan to‘plamidagi “Qaldirg‘ochjon, qaldirg‘och” she’ri yuqoridagi she’rning ham mavzu va ham g‘oya

jihatdan mantiqiy davomi ekanligi va avtobiografik xarakteri bilan alohida ahamiyatga ega [Hojiboyev S. 4:149].

Shuningdek, shaxsiy hayoti bilan bevosita bog‘liq ona, bobo, buvi mavzulari ham shoirning bolalarga bag‘ishlangan she‘rlarida son va sifat jihatidan yetakchi o‘rinni egallaydi. Shoirning “Dunyo gullari” to‘plamidagi “Bobolar”, “Ushlab yurar”, “Bog‘ning isi keladi”, “Boshingizda bodom gulladi”, “Qarz”, “Bobom”, “Buvijonim”, “Tushginamdan ayrilib”, “Hassa do‘q-do‘qlab”, “Tishingiz qani” shu kabi she‘rlari yuqoridagi mavzularning badiiy manzarasi deyish mumkin. Bu she‘rlarda oqilu mehnatkash bobo, mo‘nis-g‘amxo‘r buvi obrazlari shoirona mahorat bilan tasvirlangan. Tinib-tinchimas to‘qson yoshli boboning:

*Mehnat qilgan bardam bo‘ladi,*

*Harakat bu – sog‘liq onasi.*

*Toshni yorib chiqqani uchun,*

*Archaning ham chayir tanasi* [Hojiboyev S. 2:2],

-kabi o‘g‘itlari bolalarga g‘ayrat bag‘ishlaydi, ularni mehnatsevar bo‘lishga undaydiki, bu muhim ahamiyatga egaligi bilan har bir davru zamon uchun xizmat qilaveradi.

“Bobom” she‘rida mehnatkash bobo dehqon xarakteri nevaraning beg‘ubor mushohadalari hamda kechinmalari orqali ochib berilgan. Suhbatlardan birida “Nevaraning kim bo‘lishi” haqidagi so‘ralgan do‘stlar savoliga bobo “Kim bo‘lsa ham mayliga, Odam bo‘lsin ishqilib!” deya javob beradi. Bola esa bundan biroz ranjigandek bo‘ladi.

*Odam bo‘lsin... ey, tovba,*

*Bobomning gapi kulgi.*

*Axir, inson bolasi*

*Bo‘larmi bo‘ri, tulki* [Hojiboyev S. 2:27].

Bobo javobidagi mantiqni yillar o‘tib hayotning baland-pastini ko‘rgan, qancha-qancha odamu “noodam”larga duch kelgan, yaxshi-yomonni kuzatgan lirik qahramon bu haqiqatni anglab yetadi. Xalqning yaxshi-yomon odamlarhaqidagi bahosidan xulosa chiqaradi. “Odam bo‘layin deymen, El-yurt uchun ish qilib” degan qarorga keladi. Asar shu jihatdan muhim tarbiyaviy qimmat kasb etadi. She‘r intihosi shunday yakun topgan:

*Bobomning bu gapida*

*Bor ekan ulkan ma‘no.*

*Sodda ko‘ringan bobom*

*Aslida ekan dono* [Hojiboyev S. 2:29].

Boshqa bolalar shoirlari ijodida bo‘lgani kabi Sultonmurod Hojiboyev ijodida ham ota-ona, bobo va buvi obrazlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Shoirning “Quyosh

kinga o‘xshaydi?”, “Onamiz hidi”, “Tushingizga nima kirsin?”, “Oyim der”, “Ona”, “Shirin qo‘l” kabi she‘rlaridagi ona timsoli farzandiga mehribon, samimiy, mehnatkash, ko‘ngli ochiq, nuroniy, mushfiq va mushtipar bir ayol sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoirning ko‘pgina she‘rlaridagi qahramonlar mehribon, odobli, aqlli, bir-biri bilan inoq, g‘ayratli, mehnatsevar bolalardir. “Oyim der” she‘rida bolaning ona bilan muloqotini tasviri mavjud. She‘rda aytilishicha, bola bugun eng odobli bola ekanligini, darslarda ham doimo “5” baho olganligini, kattalarni hurmat qilganligini, kichiklarni esa sira xafa qilmaganligi bayon etilgan. Buning sababi bugun onasining tug‘ilgan kuni ekan. Bu so‘zlarni eshitgan ona bolasining doim shunday bola bo‘lib qolishiga da‘vat qiladi:

*«So‘zlari olov, cho‘g‘lim!*

*Faqat bugun emas-da,*

*Doim shunday bo‘l, o‘g‘lim!»* [Hojiboyev S. 2:40].

She‘rdan kelib chiqadigan xulosa shuki, ona o‘z farzandini odamlarga mehru muhabbat ruhida kamolga yetkazgan. Bola ham o‘z onasini juda yaxshi ko‘radi.

“Chaqiraman bahorni” she‘ri qahramoni ham onasiga mehribon, g‘amxo‘r bola. U barcha bolalar qishni, oppoqqorni, qorda chang‘i, konki uchishni, maza qilib o‘ynashni yaxshi ko‘radi. Lekin qish kelaversa, bolaning ko‘ngli g‘ash bo‘ladi. Nega bola qishni sevadiyu, yana qish kelishidan ko‘ngli g‘ash bo‘ladi. Sababi onasining “oyog‘iga og‘riq olib kelar qish”. Onasiga bo‘lgan mehri tufayli o‘zining eng yaxshi ko‘rgan narsalaridan voz kechishga tayyor.

*Men hamqishni sevaman,*

*Sevaman oppoqqorni.*

*Lekin oyim uchunmi*

*Chaqiraman bahorni* [Hojiboyev S. 2:40].

She‘rning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, uni o‘qigan o‘quvchi o‘z vujudida onaga bo‘lgan mehrni his qiladi.

Do‘stlik, inoqlik, hamjihatlik she‘riyatning azaliy mavzulardan hisoblanadi. Shoir ijodida bunday mavzulardagi she‘rlar talaygina. Shulardan biri “To‘p terak” she‘ri bo‘lib, unda tasvirlanishicha, bir yerda ko‘p terak to‘p bo‘lib, bir-birlariga yelka tutib, ahil va inoq o‘sishardi. Ulardan sal narida g‘o‘dayib, atrofiga qaramay yakka terak o‘sarkan. U o‘z-o‘ziga shunday derkan:

*Menga judayam maza.*

*Xalaqit bermas birov.*

*Bir o‘zimga bir marza,*

*Yayrayman, xo‘p, bemalol.*

*To‘rt yonimga shox qo‘yib,*



*Quyosh bir o‘zimniki,*

*Havo yutaman to‘yib.*

*Qisqasi, mendan hech kim*

*Hech narsani to‘smaydi.*

*Anovi ko‘p teraklar*

*Menday yaxshi o‘smaydi...* [Hojiboyev S. 2:11-12].

Oradan bahoru yozlar o‘tib, kuz va qishlarga navbat keldi. Bir kuni to‘satdan qorbo‘ron bosib keldi. Yeru ko‘kni quyun qoplab, hamma yoq zulmatda qoldi. Qorbo‘ron avjiga chiqib, daraxtlar shoxini bor kuchi bilan qayirardi. Ana shunda to‘p terak bir-birini suyadi, qor quyuni ularga hech qanday zarar yetkaza olmadi. Yolg‘iz terak esa bundan juda qo‘rqib ketdi. U atrofiga alanglab, yonida yaqin do‘stlari yo‘qligini anglab yetdi.

*To‘rt tomoni bo‘sh edi,*

*Yo‘q edi bir madadkor.*

*Tanholikda gerdayib*

*O‘sgani ekan bekor.*

*Bo‘ronga dosh berolmay*

*Oxiri sinib ketdi.*

*Qor, quyun chuvillashib*

*Ustiga minib ketdi* [Hojiboyev S. 2:13].

Bo‘ron tinib, olam tinchib qoladi. To‘p terak bu bo‘rondan eson-omon qolishadi. Ular hozir ham qancha bahoru yozni quvnoqqarshilab, ahil yashashmoqda. Yolg‘iz, xudbin, g‘o‘daygan terakdan esa jonsiz bir to‘nka qoldi, xolos. Bu tasvir alloma A.Qahhorning “Yolg‘izlikning o‘zi bir dahshat” degan hikmatini yodimizga soladi.

Shoir bolalarni inoq, ahil bo‘lishga, do‘stlikning doimo qadriga yetishga chaqiradi. Syujetli she‘rlarni kichik maktab o‘quvchilari tez qabul qiladilar, mazmunini oson anglab yetadilar.

Shoir she‘rlarining xususiyatlariga qida dastlabki xulosalarimiz quyidagilardan iborat:

1. Ularning lirik qahramoni nihoyatda samimiy, qalbi pok, odamlar va boshqa jonli mavjudotga, narsa va buyumlarga, hodisalarga o‘z munosabatini ifodalay oladigan zukko, topqir hamda hozirjavob bolalar hisoblanadi. Shunday obrazlardan biri – o‘quvchi bola keksalikka o‘z munosabatini shunday bayon etadi:

*Dars tayyorlay demaysan,*

*Eh, chol bo‘lsang maza-da!*

*Choy ichib o‘tirasan,*

*Nevarachang tizzada* [Hojiboyev S. 5:3].

2. Muallif o‘quvchiga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini ijobiyqahramon tilidan bayon etadi: “Mendan keyin bu oftob chiqsa-chiqmasa nima?” - degan hamsuhbatiga shunday javob beradi:

*Oftob chiqsin hamisha,*

*Chiqsin bizdan keyin ham.*

*Axir, faqat o‘zini*

*O‘ylamas yaxshi odam [ Hojiboyev S. 2:5 ].*

3. Bir mavzuga doir tushunchalarni anglatuvchi so‘zlardan mahorat bilan foydalanilgan:

*Dunyoning quyoshi bir,*

*Osmoni ham yagona.*

*Oy, yulduzlar o‘rtada,*

*Yer barchamizga Ona [ Hojiboyev S. 2:4].*

Bunda quyosh, osmon, oy, yulduz, yer kabi koinotga oid jismlarni ifodalovchi so‘zlarni she‘r shodasigat izadi. O‘quvchi e‘tiborini ularning birligiga qaratadi, kishilarni hamjihatlikka, mehr-oqibatli bo‘lishga undaydiki, bu hol bugungik unimiz uchun ham juda muhimdir.

4. She‘rlarning ko‘pchiligi lirik personajlarning o‘zaro suhbatini, ularning savolu javobi tarzida tuzilgan. Bu suhbat bola bilan bola, bola bilan katta yoshlilar), bola bilan qushlar, hatto jonsiz narsalar (masalan: daraxtlar, “Chiniqish maqsadida” she‘ri) orasida bo‘lib o‘tganday tasvirlanadi:

*Deyishadi: «Ey, noshukur,*

*Bizlar o‘qisak koshki.*

*Odamlar bilim bilan*

*Parvozda qushdan oshdi» [Hojiboyev S. 2:59].*

Bu orqali shoir bolalarga chuqur bilim olish zarurligini aniq timsol va detallar asosida ifoda qiladi. Shuningdek, she‘rda shoir she‘riy san‘atlardan biri – intoqdan mohirona foydalanganiki, bu she‘r badiiyligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

5. Ba‘zi she‘rlarda salbiy personajlarning o‘z tilidan o‘zini fosh etish usuli mohirona qo‘llangan. Buni “Mehmon bo‘lish” she‘rining lirik qahramoni misolida kuzatish mumkin. Mehmon bo‘lib borgan bola dasturxondagi qand-qurs va mevalardan istagancha olib yeyaveradi. Ota-onasi uning bu qilg‘idan xijolat chekayotganini sezsa-da, o‘zini bilmaganga oladi. She‘rda bolaning bu hatti harakatlari odobga zid ekanligiga nozik ishora mavjud.

*Erkalik, injiqligim*

*Mehmonlar ko‘taradi.*

*Faqat dadam va oyim*

*Nega ko‘p yo‘taladi? [ Hojiboyev S. 5:20 ].*

Xullas, bolalar shoiri S.Hojiboyev bolalar ruhiy dunyosini yaxshi bilishi, she’rlarida ularning o‘y-fikrlari, orzu-armonlari, intilishlariyu qiziqishlarini to‘laonli ifodalarda tasvirlay olganligi ko‘zga tashlanadi. Shoir she’rlarining muvaffaqiyati ham aslida shundadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar r̄yxati**

1. Shonazarov Yu. Bolafe’lлик injulari. – Xujand: YMMM, 2011, 39 –b.
2. Hojiboyev S. Dunyo gullari. – Dushanbe: Adib, 2004, 64 -b.
3. Hojiboyev S. Men oyga chiqib tushdim. – Dushanbe: Maorif, 1985. – 56 –b.
4. Hojiboyev S. Umrning bir marta ȳn sakkizi bor. – Xujand: Noshir, 2023, 196 – b.
5. Hojiboyev S. Yaxshi bola qanday b̄ylar?– Xujand: Noshir, 2023, 91- b.
6. Hojiboyev S. Quvnoq alifbe. – Toshkent: Yulduzcha, 1990, 26-b.